

1. "Kopilka" muddatli omonati

Omonat shartlari:

Milliy So'm valyutasida:

- Boshlang'ich to'lovning eng kam miqdori - **1 000 000 so'm**;
- Omonat muddati - **25 oy**;
- Omonat bankka **naqd pul shaklida** ham, **onlayn shaklda** ham kiritilishi mumkin;
- Foiz stavkasi - (**O'zR MB qayta moliyalash stavkasi + 6%**) yilik;
- Onlayn shaklda omonat ochilganda - foizlar **har oyda omonat valyutasida** mobil ilova orqali ochilgan omonatchining hamyon hisob raqamiga to'lanadi.
- Naqd pul shaklida omonat ochilganda - foizlar **har oy omonat valyutasida** naqd pulda yoki omonatchining "Kapitalbank" ATB bank kartasi hisobvarag'iga (omonatchining istagiga binoan) to'lanadi ;
- **Omonatni to'ldirish** - ko'zda tutilgan;
- **Omonatning bir qismini olish** - ko'zda tutilgan. Bunda omonatdagi qoldiqning eng kam miqdori 10 000 000 so'm bo'lishi kerak;
- **Muddatidan oldin qaytarib olish** - ruxsat beriladi. Agar omonat muddatidan oldin talab qilib olinadigan bo'lsa, omonatchiga foizlar summasi pul mablag'larining omonatda turgan to'liq oylari uchun to'lanadi;
- Omonatning asosiy miqdorini to'lash **omonat valyutasida** naqd pul shaklida (agar omonat naqd pul shaklida rasmiylashtirilgan bo'lsa) yoki mobil ilova orqali ochilgan omonatchining hamyon hisob raqamiga (agar omonat mobil ilova orqali rasmiylashtirilgan bo'lsa) o'tkazilgan holda amalga oshiriladi.

2. "Oltin kuz" muddatli omonati

Omonat shartlari:

Milliy So'm valyutasida:

- **Dastlabki badalning eng kam summasi** – 500 000 so'm;
- **Omonat muddati** – 24 oy;
- Omonat Bankka **naqd** yoki **onlayn** shakllarda kiritilishi mumkin;
- **Foiz stavkasi:**
yiliga 17% – omonat muddatining 1 (birinchi) oyidan 12 (o'n ikkinchi) oyigacha;
yiliga 16% – omonat muddatining 13 (o'n uchinchi) oyidan 24 (yigirma to'rtinchi) oyigacha;
- Foizlar **har oyda omonat valyutasida** naqd pul shaklida (agar omonat naqd pul shaklida ochilgan bo'lsa) yoki omonatchi hamyoniga o'tkazish (agar omonat «Apelsin» mobil ilovasi orqali ochilgan bo'lsa) yo'li bilan to'lanadi;
- **Omonatni to'ldirish** – ko'zda tutilgan. Bunda eng kam to'ldirish summasi – **500 000 so'm**;
- **Omonatning bir qismini olish** – ko'zda tutilgan. Bunda omonatdagi qoldiqning eng kam summasi **500 000 so'mni tashkil etishi kerak**;
- **Muddatidan oldin qaytarib olish** – mumkin. Agar omonat muddatidan oldin talab qilib olinadigan bo'lsa, foizlar summasi pul mablag'larining omonatda turgan to'liq oylari uchun to'lanadi;
- Omonatning asosiy summasi **omonat valyutasida** naqd pul shaklida (agar omonat naqd pul shaklida ochilgan bo'lsa) yoki omonatchi hamyoniga o'tkazish (agar omonat «Apelsin» mobil ilovasi orqali ochilgan bo'lsa) yo'li bilan to'lanadi.

3. "Kapital24" muddatli omonati

Omonat shartlari:

AQSh dollarida:

- Dastlabki to'lovning eng kam miqdori - **500 AQSh dollari**;
- Omonat muddati - **24 oy**;
- Omonatni bankka **naqd / naqdsiz** va **onlayn** shaklda o'tkazish mumkin;
- Foiz stavkasi - **yiliga 5%**;
- Foizlar **har yili omonat valyutasida avans tarzida** naqd pulsiz shaklda to'lanadi yoki mobil ilova orqali ochilgan omonatchining hamyon hisob raqamiga kiritiladi;
- **Omonatni to'ldirish** - ko'zda tutilmaydi;
- **Omonatning bir qismini qaytarib olish** ko'zda tutilmagan;

- **Muddatdan avval bekor qilishga** ruxsat beriladi. Agar omonat muddatidan oldin qaytarib olinadigan taqdirda, u muddatdan oldin qaytarib olish sanasida omonatning oxirgi to'liq bo'lmagan 12 oyi uchun to'langan foizlar (so'ngi avans bilan to'langan foizlar sanasiga nisbatan) yillik 3 % asosida qayta hisoblab chiqiladi. Bunday holda, to'langan va hisoblangan foizlar o'rtasidagi farq omonat summasidan ushlab qolinadi.

4. “Lyuks” muddatli omonati

Omonat shartlari:

AQSH dollarida :

- **Dastlabki badalning eng kam summasi** – 500 AQSH dollari;
- **Omonat muddati** – 36 oy;
- Omonat Bankka **naqd** yoki **onlayn** shakllarda kiritilishi mumkin;
- **Foiz stavkasi:** - yillik 4%;
- Foizlar **har oyda omonat valyutasida** naqd pul shaklida yoki «Apelsin» mobil ilovasi orqali ochilgan omonatchi hamyoniga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi;
- **Omonatni to'ldirish** – ko'zda tutilgan. Bunda eng kam to'ldirish summasi – **500 AQSH dollari;**
- **Omonatning bir qismini olish** – ko'zda tutilgan. Bunda omonatdagi eng kam qoldiq summa **1000 AQSH dollarini;**
- **Muddatidan oldin qaytarib olish** – mumkin. Agar omonat muddatidan oldin talab qilib olinadigan bo'lsa, foizlar summasi pul mablag'larining omonatda turgan to'liq oylari uchun to'lanadi;
- Omonatning asosiy summasi omonat valyutasida naqd pul shaklida yoki omonatchining «Apelsin» mobil ilovasi orqali ochilgan hamyoniga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi

5. “Yevro Lyuks” muddatli omonati

Omonat shartlari:

Yevro:

- **Dastlabki badalning eng kam summasi** – 100 Yevro;
- **Omonat muddati** – 36 oy;
- Omonatni Bankka **naqd** pul shaklida qo'yish mumkin;
- **Foiz stavkasi:** - yillik 3%;
- Foizlar **har oy omonat valyutasida** naqd pul orqali to'lanadi;
- **Omonatni to'ldirish** – ko'zda tutilgan. Bunda eng kam to'ldirish summasi – **100 Yevro;**
- **Omonatning bir qismini olish** – ko'zda tutilgan. Bunda omonatdagi eng kam qoldiq summa **500 Yevro tashkil etishi kerak;**
- **Muddatdan avval so'rash** - ruxsat beriladi. Omonat muddatidan oldin qaytarib olingan taqdirda, pul mablag'larining omonatda mavjud bo'lgan to'liq oylari uchun hisoblangan foizlar summasi to'lanadi; Omonatning asosiy summasini to'lash **omonat valyutasida**, naqd pul orqali amalga oshiriladi.